



## **Jinoiy huquqbuzarlik sodir etishda gumonlanayotgan shaxsni himoyalashda advokat qo‘llashi mumkin bo‘lgan choralar**

*Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti*

*Yurisprudensiya 4-108-guruh talabasi*

***O‘rmanova Muxlisa Dilshodjon qizi***

*Telefon: +998(97) 021-04-28*

*[muxlisaormanova13@gmail.com](mailto:muxlisaormanova13@gmail.com)*

***Anontatsiya:*** *bu maqolada huquqbuzarlik turlari va jinoiy huquqbuzarlik sodir etishda gumonlanayotgan shaxsni himoyalashda advokat qo‘llashi mumkin bo‘lgan choralar, birinchi sud qanday va qay holatda paydo bo‘lgani haqida ma’lumotlar keltirilib, xulosalar aytilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *jinoiyat, jinoyatchi, huquqbuzar, huquqbuzarlik turlari, jinoiy huquqbuzarlik, jazo, konstitutsiya, norma, prinsip, qonun, Ombudsman, xulq-atvor, modda, Xalqaro sud, retsidivist jinoyatchi, obykti, obyektiv tomoni, subyektiv va subyektiv.*

Bilamizki, har bir shaxs alohida bir dunyoga ega ya’ni biron insonning harakteri boshqa insonda qaytarilmaydi. Hatto ona qornidaligidayoq bir paytda paydo bo‘lgan egizaklarning ham dunyoqarashi turli-tumanni aks ettiradi. Endi ko‘rinib turibdiki, shaxs xatti-harakatlari va xulq-atvori turlicha. Huddiki insonning barmoq izlari kabi qaytarilmasdir. Insonni tug‘ilibdiki uning shaxsiyati rivojlana boshlaydi. Yillar davomida bu shaxsiyat rivojlanib uning xulq-atvoriga aylanadi.

Jinoyat yoki jinoyatchi ha, bu so‘zlar har bir insonga notanish emas. Bu so‘zlarning lug‘aviy ma’nosini ko‘p inson bilmasa ham lekin jinoyat deganda davlat tomonidan belgilab qo‘yilgan normalarga xilof ish qilib, taqiqlangan va ijtimoiy



xavfli bo‘lgan qilimishni sodir etish bu jinoyat ekanligini bilishashadi. O‘zi jinoyat so‘zining lug‘aviy ma’nosiga qaraydigan bo‘lsak, jinoyat kodeksi bilan taqiqlangan, aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) jazo qo‘llash tahdidi bilan jinoyat deb topiladi<sup>1</sup>. Bu yuqorida keltirilgan qilmishni sodir etgan shaxs albatta jinoyatchi hisoblanadi. Lekin shu jinoyat sodir etgan shaxslar ya’ni jinoyatchilar deb tamg‘a qo‘ygandek qo‘l bilan ajratib ko‘rsatayotgan insonlarimiz aslida jinoyatchimi? Ular ba’zi qabih niyatli insonlar girdobiga tushib qolmadimikan? Bu kabi savollar aslida hech kim jinoyatchi yoki huquqbuzar bo‘lib dunyoga kelmaydi, balki atrof-muhitdagi hodisa va jarayonlar natijasida inson shaxsi rivojlanadi degan g‘oya tarafdorlari tomonidan paydo bo‘lgan. To‘g‘rida hech kim ona qornidan huquqbuzar bo‘laman, yoki qulog‘iga azon aytilib yaxshi niyat ila o‘sib kelayotgan yosh go‘dakka sen jinoyatchi bo‘lasan deb niyat bildirmaydi-ku. Aslida o‘ta shafqatsiz va retsivist jinoyatchilar bilan suhbat olib borilganda ham, ularga yoshligida yoki o‘spirinlik davrida ularga tazyiq o‘tkazishgan bo‘ladi. Va ularning bu psixologiyasidan katta tramma hosil qilib, yillar o‘tib bu o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Davlatlar paydo bo‘libdiki, ular o‘z qonun-qoidalariga ega bo‘lishga intilib kelgan. Chunki har bir davlat an’anasi, turmush- tarzi yoki boshqa hayot kechirish qoidalariga har xildir. Shuning uchun ular o‘z davlatlarida o‘z qonunlarini yaratishadi. Sud yoki sud hokimiyati tushunchasi 1066 yilda Normanlarning Britaniyaga bostirib kelishidan keyin Qirol Kengashining ingliz qirollik sudyalari tomonidan paydo bo‘lgan. Qirollik sudyalari mahalliy yurisdiksiyalarga sayohat qilish va tashrif buyurish orqali xabardor bo‘lgan mahalliy urf-odatlarni birlashtirib, qonunlar to‘plamini yaratdilar<sup>2</sup>. Tarixdan ma’lumki, yurtimizda qozilar sud vazifasini bajarib kelgan. Hozir ham avval ham huquqbuzarlik va jinoyat turlari ham har xil bo‘lgan. Huquqbuzarlik so‘zining ma’nosiga ham qaraydigan bo‘lsak, huquqbuzarlik

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi – “Adolat” Toshkent. 2023

<sup>2</sup> <https://en.wikipedia.org/wiki/Court>



– bu huquq va muomala layoqatiga ega subyekt tomonidan harakat yoki harakatsizlik ko‘rinishida sodir etilgan, huquq normalariga zid keluvchi hamda shaxsga, mulkka, davlatga va butun jamiyatga zarar keltiruvchi ijtimoiy xavfli qilmish<sup>3</sup>. Demak huquqbuzarlikni ham shaxsga, davlatga va mulkka zarar keltiruvchi va huquq normalariga zid xatti-harakat ham deb aytsak bo‘ladi. Huquqbuzarlik ham ayni paytda to‘rt guruhga bo‘linadi: ma‘muriy, jinoiy, fuqarolik-huquqiy va intizomiy. Bular bir – biridan obyekt, obyektiv tomoni, subyekt va subyektiv tomoniga ko‘ra farq qiladi<sup>4</sup>. Endi jinoiy huquqbuzarlik sodir etishda gumonlanayotgan shaxsni advokat tomonidan himoyalaniishi bu juda katta va e‘tibor qaratadigan narsa. Chunki u shaxs bu huquqbuzarlikni sodir etgan yoki sodir etmaganini faqat o‘zi biladi. U esa ayni vaqtda hech kimga ishonmaydi va kuchli qo‘rquv depressiya holatida bo‘ladi. Hozirda tergov faoliyatimizda qanchadan – qancha islohotlar bo‘layotgan bo‘lsa, qancha begunoh insonlar yillar o‘tib oqlanyapti. Bu ham bizni tergov faoliyatimizdagi oqsoqliklarimizdan biridir. Endi esa butun ma‘suliyat advokatda. U aslida o‘sha huquqbuzarlik qanday va qay holatda bo‘lganini bilishi kerak va qo‘lidan kelgancha adolat qaror topishi uchun harakat qilmog‘i zarur. Avvalo advokat Konstitutsiyamizning 20-moddasi 4-qismiga ko‘ra, “Davlat organlari tomonidan insonga nisbatan qo‘llaniladigan huquqiy ta‘sir choralari mutanosiblik prinsipiga asoslanishi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun yetarli bo‘lishi kerak”<sup>5</sup> deb keltirib o‘tilgani yodidan chiqarmasligi kerak. Chunki huquqbuzarlik sodir etilibdiki, hamma tezroq huquqbuzarni topish va uni jazoga tortish kerakligi naznida tergov harakatlari olib boradi. Demak, tergov jarayoni huquqbuzar agressiv yoki psixologiyasi hali o‘ziga kelmagan bir paytda olib boriladi. Shuning uchun haqiqattan jinoyatchi-yu lekin o‘zicha huquqni muhofaza qiluvchi organlar hodimlarini aldamoqchi bo‘layotgan shaxslarni yoki umuman aybi

<sup>3</sup> Davlat va huquq nariyasi: darslik. – Toshkent: TDYU, 2022. -209 bet

<sup>4</sup> Davlat va huquq nariyasi: darslik. – Toshkent: TDYU, 2022. -210 bet

<sup>5</sup> O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – “Yuridik adabiyotlar publish” Toshkent. 2023



bo‘lmagan insonlarni insonparvarlik tamoyillariga mos bo‘lmagan ta’sir choralari qo‘llab tergov harakatlari olib borishi mumkin emas. Bu Konstitutsiya darajasida mustahkamlab qo‘yilgandir! Advokat mana shu jihatlarga ham katta e’tibor qaratishi lozim. Agarda shu moddaning 5-qismiga ham nazar tashlasak, “Inson bilan davlat organlarining o‘zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etiladi”<sup>6</sup> deb qo‘yilganiga ko‘zimiz tushadi. Bu ham so‘nggi yillardagi sud-huquq tizimida vujudga kelgan islohotlarni qonunchiligimizga o‘z ta’sirini ko‘rsatayotganini bir dalilidir. Yana advokat qo‘lidan kelgancha Xalqaro inson huquqlari bo‘yicha vakil ya’ni Ombudsmanga kerak bo‘lsa Xalqaro sudga ham murojaat qilishi kerak. O‘zining himoyasidagi shaxsni himoya qilish uchun qayta ekspertiza o‘tkazishi ham mumkin yoki tergov xulosasini ham olishi mumkin. Hozirda sud jarayonlari shaffofligini ta’minlash maqsadida sud jarayoni bo‘ladigan kungacha bo‘lgan vaqt davomida ikki tomon ham sud jarayoniga yaxshi tayyorlanishi uchun sud hokimiyati qo‘lidan kelgan barcha ishlarni bajarmoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsam, hech kim jinoyatchi yoki huquqbuzar bo‘lib dunyoga kelmaydi. Bu atrofdagi muhit yoki qandaydir holat natijasida paydo bo‘ladi. Uning aslida huquqbuzar yoki jinoyatchiligini esa yillar o‘tib emas balki advokat va huquqni muhofaza qiluvchi organ hodimlari tomonidan adolatli tarzda belgilangan muddatlarda aniqlash yoki isbot qilish kerak. Sud protsessi bo‘layotgan yoki muddati belgilangan kungacha advokat qo‘lidan kelgan hamma narsani qilishi kerak. Chunki bu faqat sud hodimlari qo‘lida emas. Qarz ikki qo‘ldan chiqadi deganday, ikki tomon ham huquqbuzarlikni ochilishi uchun harakat qilishi kerak. Dalillar va yolg‘on guvohliklar tufayli asl aybdor jazosiz qolmasligi kerak.

---

<sup>6</sup> O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – “Yuridik adabiyotlar publish” Toshkent. 2023



### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – “Yuridik adabiyotlar publish”  
Toshkent. 2023
2. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi – “Adolat” Toshkent. 2023
3. <https://en.wikipedia.org/wiki/Court>
4. Davlat va huquq nariyasi: darslik. – Toshkent: TDYU, 2022. -209 bet